

## SOME ISSUES OF DEVELOPMENT OF LARGE INDUSTRIAL CENTERS

**A. M. Khunarov**

Senior Lecturer

Almalik branch of Islam Karimov Tashkent State Technical University

Almalyk, Uzbekistan

E-mail: [xunarov@umail.uz](mailto:xunarov@umail.uz)

**Sh. B. Kurbanov**

Associate Professor, PhD

National University of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: [qurbonov1977@mail.ru](mailto:qurbonov1977@mail.ru)

**D. Q. Yakshimurodova**

Master's student

National University of Uzbekistan

Tashkent, Uzbekistan

---

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** industrial center, cities, volume of industrial output, regional composition of industry, industries, depressed region, region, socio-economic development.

**Received:** 12.12.22

**Accepted:** 14.12.22

**Published:** 16.12.22

**Abstract:** The article considers the factors and conditions for the development of large industrial centers of Uzbekistan on the example of industrial cities of the Tashkent region. The main attention is paid to the analysis of socio-economic indicators of the cities of Angren, Almalyk, Chirchik, Bekabad and Okhangaron, which have a high industrial and production potential of the region.

---

## TOSHKENT VILOYATI YIRIK SANOAT MARKAZLARI RIVOJLANISHINING BA'ZI BIR MASALALARI

**A. M. Xunarov**

katta o'qituvchi

Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat texnika universiteti Olmaliq filiali

Olmaliq, O'zbekiston

E-mail: [xunarov@umail.uz](mailto:xunarov@umail.uz)

**Sh. B. Qurbonov**

Dosent, PhD

O'zbekiston Milliy Universiteti

Toshkent, O'zbekiston

E-mail: [qurbonov1977@mail.ru](mailto:qurbonov1977@mail.ru)

**D. Q. Yaxshimurodova**

Magistratura talabasi

O'zbekiston Milliy Universiteti

Toshkent, O'zbekiston

---

## MAQOLA HAQIDA

---

**Kalit so'zlar:** sanoat markazi, shaharlar, sanoat mahsuloti hajmi, sanoatning hududiy tarkibi, sanoat tarmoqlari, depressiv rayon, mintaqa, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish.

**Annotatsiya:** Maqolada O'zbekistonda yirik sanoat markazlari rivojlanishining omillari va shart-sharoitlari Toshkent viloyatining sanoat shaharlari misolida ko'rib chiqilgan. Asosiy e'tibor viloyatning sanoat ishlab chiqarish salohiyati jihatidan yuqori bo'lgan Angren, Olmaliq, Chirchiq, Bekobod va Ohangaron shaharlarining ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarini tahlil qilishga qaratilgan.

---

## НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ РАЗВИТИЯ КРУПНЫХ ПРОМЫШЛЕННЫХ ЦЕНТРОВ

**А. М. Хунаров**

старший преподаватель

Алмалыкский филиал Ташкентского государственного технического университета имени

Ислама Каримова

Алмалык, Узбекистан

E-mail: [xunarov@umail.uz](mailto:xunarov@umail.uz)

**Ш. Б. Курбанов**

доцент, PhD

Национальный университет Узбекистана

Ташкент, Узбекистан

E-mail: [qurbonov1977@mail.ru](mailto:qurbonov1977@mail.ru)

**Д. К. Якимуродова**

студент магистратуры

Национальный университет Узбекистана

Ташкент, Узбекистан

---

## О СТАТЬЕ

---

**Ключевые слова:** промышленный центр, города, объем промышленной продукции, региональный состав промышленности, отрасли промышленности, депрессивный регион, регион, социально-экономическое развитие.

**Аннотация:** В статье рассмотрены факторы и условия развития крупных промышленных центров Узбекистана на примере промышленных городов Ташкентской области. Основное внимание уделяется анализу социально-экономических показателей городов Ангрен, Алмалык, Чирчик, Бекабад и Охангарон, обладающих высоким

---

## KIRISH

O‘zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotini rivojlantirish, uning barcha sohalardagi xavfsizligi va mustaqilligini ta‘minlash, eksport salohiyatini yuksaltirish va jahon hamjamiyatidagi o‘rnini yuksaltirib borish ko‘p jihatdan uning ichki ma‘muriy tuzilmasi – Qoraqalpog‘iston respublikasi, poytaxt Toshkent shahri, viloyatlar, shahar va qishloq aholi manzilgohlari salohiyatidan har tomonlama foydalanishga bog‘liq. Yaqin kelajakka mo‘ljallangan strategik maqsadlarga erishish respublika va uning hududlarida mavjud tabiiy resurslar, mineral xom ashyo va boshqa imkoniyatlardan samarali foydalanishni talab qiladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, O‘zbekiston ma‘muriy-hududiy tuzilmasining yuqori bosqichini tashkil etuvchi Qoraqalpog‘iston Respublikasi, 12 ta viloyat va uning poytaxti – Toshkent shahrining har biri va birgalikda mamlakatimizning yagona geoiqtisodiy tizimini shakllantiradi. Ularning mamlakat hududiy mehnat taqsimotidagi o‘rni, demografik va ekologik vaziyati, xo‘jaligining tarmoqlar va hududiy tarkibi, ixtisoslashuvi muhim geografik xususiyat kasb etadi. Shu bilan birga, hududlarning asosiy iqtisodiy salohiyatini o‘zida mujassamlashtirgan o‘shish qutb va markazlarini aniqlash, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining dolzarb muammolari va ustuvor yo‘nalishlarini belgilashda yirik sanoat markazlari-shaharlariga alohida e‘tibor qaratishni taqozo etadi.

## ASOSIY QISM

Har qanday mamlakat yoki mintaqa ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanishida sanoatning o‘rni katta. Sanoat ishlab chiqarishi o‘zining hududiy va ijtimoiy tashkil etish xususiyatlari jihatidan boshqa iqtisodiyot tarmoqlaridan, jumladan qishloq xo‘jaligi va transportdan keskin farq qiladi. Sanoatda ishlab chiqarishning mujassamlashuvi, ixtisoslashuvi, kooperatsiya va kombinatlashuv yuqori darajada rivojlangan bo‘lib, ular, o‘z navbatida, mazkur tarmoq iqtisodiy samaradorligini ta‘minlaydi.

O‘zbekiston sanoatining xududiy tarkibida Toshkent shahri, Andijon, Navoiy viloyatlari bilan birga Toshkent viloyati ham yetakchilik qiladi. Ushbu hududlarda sanoatning tarmoqlar tarkibi nisbatan diversifikatsiyalashgan bo‘lib, ular hozirgi zamon talabi nuqtai nazaridan rivojlanib bormoqda. Xususan, bu mintaqalarda qora va rangli metallurgiya, mashinasozlik va metalni qayta ishlash, kimyo, yoqilg‘i - energetika va qurilish materiallari sanoatining rivojlanishi bilan mamlakatning boshqa mintaqalaridan keskin farq qiladi. Masalan, Navoiy viloyatida rangli metallurgiya, Toshkent viloyatida qora va rangli metallurgiya, yokilg‘i - energetika va kimyo sanoati, Andijon viloyatida avtomobilsozlik kabi sanoat tarmoqlari rivojlangan. Aynan shu hududlar respublika sanoat salohiyatini ko‘p jihatidan belgilab beradi [1].


Toshkent viloyati ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini oshirishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni ijrosini ta‘minlash, Toshkent viloyati hududlarida sanoat, qishloq xo‘jaligi va xizmat ko‘rsatish sohalarining kelgusi besh yildagi istiqbollarini hamda har bir tuman va shaharning “o‘shish nuqtalari”ni belgilash, ijtimoiy sohani rivojlantirish orqali aholi salomatligi hamda turmush darajasini yanada yaxshilash maqsadida “2022 - 2026-yillarda Toshkent viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori alohida ahamiyat kasb etadi.

Toshkent viloyati respublikamizda o‘zining iqtisodiy, intellektual va demografik salohiyatiga ko‘ra alohida ajralib turadi. Shu bilan birga Toshkent viloyati o‘ziga xos tabiiy, iqtisodiy va siyosiy geografik o‘ringa ega. U 3 ta xorijiy mamlakat bilan, shimolda Qozog‘iston, sharqda Qirg‘iziston, janubi-sharqda Tojikiston respublikalari bilan chegaradosh. Respublika doirasida esa Namangan va Sirdaryo viloyatlari bilan qo‘shnichilik qiladi. Viloyatning siyosiy geografik o‘rni qaysi bir ma‘noda O‘zbekistonning janubiy viloyati Surxondaryoga o‘xshab ketadi.

Statistik ma‘lumotlardan ko‘rish mumkinki, 2021 yilda hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining respublika jami hajmidagi eng yuqori ulushi Toshkent shahriga to‘g‘ri kelgan (19,1 %), bu borada Toshkent viloyati 18,4 % bilan poytaxtdan keyingi ikkinchi o‘rinni egallagan. Mazkur ko‘rsatkichlar Navoiy viloyati 16,3 % va Andijon viloyati 8,0 % tashkil etgan [2].

Ta‘kidlash joizki, sanoat o‘zining xududiy va ijtimoiy ishlab chiqarishni tashkil etish jihatidan katta shahar hosil qilish qobiliyatiga ega. Ayniqsa og‘ir sanoat tarmoqlari aksariyat hollarda yirik sanoat markazlarining vujudga kelishiga zamin yaratadi. Respublikamizda tipik yoki “sof” industrial funksiyaga ega bo‘lgan ko‘pgina shaharlar mavjud. Odatda, bunday katta- kichik shaharlar viloyat yoki qishloq ma‘muriy markazlari vazifasini bajarmaydi. Mazkur toifadagi shaharlar qatoriga Chirchik, Olmaliq, Angren, Bekobod, Ohangaron, Zarafshon, Uchquduq, Marg‘ilon, Qo‘qon, Kuvasoy, Chorbog‘, G‘azg‘on, Nurobod va boshqalar kiradi. Bundan tashqari, turli xil qazilma boyliklar asosida vujudga kelgan “resurs” shaharchalar ham mavjud. Yuqoridagi shahar va shaharchalar tarkibida o‘zining sanoat ishlab chiqarish salohiyatiga ko‘ra. eng avvalo, Toshkent viloyatining 5 ta shaharlari ajralib turadi. Viloyatda sanoat ishlab chiqarishi hajmi tarkibida eng ko‘p ulush Olmaliq (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmining 38,9 %) hamda Bekobod (11,1 %), Chirchiq (6,5%), Angren (4,5%) va Ohangaron (4,4 %) shaharlari hissasiga to‘g‘ri kelgan, ular birgalikda viloyat sanoat mahsulotining 65,4 % ishlab chiqargan (1-rasm).

**Toshkent viloyati sanoat ishlab chiqarishining hududiy tarkibi  
(2021 yil yakunlari bo'yicha)**



Manba: Toshkent viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari ([www.toshstat.uz](http://www.toshstat.uz))

Odatda, mutloq raqamlarga nisbatan aholi jon boshiga mos keluvchi sanoat mahsulotlari tahlil qilish yaxshi natijalar beradi. Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha yirik sanoat korxonalarini joylashganligi hisobiga Olmaliq (240719,2 ming so'm), Ohangaron (22376,8 ming so'm) va Bekobod (94930,0 ming so'm) shaharlarida o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (28524,9 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rish mumkin. Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 6843,7 ming so'm bo'lgani holda, Ohangaron shahrida – 3571,5 ming so'mni, Zangiota tumanida – 8079,6 ming so'mni, Qibray tumanida – 4461,7 ming so'mni, Chirchiq shahrida 19457,1 ming so'mni tashkil qilgan.

jadval

Toshkent viloyati shaharlari va qishloq tumanlari sanoatining tarmoqlar tarkibi (2020 yil, foiz hisobida)

Hududlar	Yoqilg'i	Elektroenergetika	Kimyo, neft-kimyo va gaz-kimyo	Qora metallurgiya	Rangli metallurgiya	Mashinasozlik, ta'mirlash va metallni qayta ishlash	O'rmon, yog'ochni qayta ishlash va sellyuloza-qog'oz	Qurilish materiallari	Engil	Oziq-ovqat va omonxta yem	Boshqalar
1 Angren sh.	21,4	46,4	2,4	3,2	8,6	3,0	0,5	4,2	2,9	5,2	2,3
2 Bekobod sh.			0,6	88,3		1,6	0,0	9,0	0,1	0,3	0,0
3 Chirchiq sh.		5,4	36,5	0,9	0,1	31,1	0,1	1,6	20,4	3,9	0,2
4 Nurafshon sh.		87,9				1,4	0,5	0,7	3,5	2,1	3,9
5 Ohangaron sh.			2,4	56,4		1,2	0,3	31,2	2,3	6,2	
6 Olmaliq sh.	3,4		11,0		80,4	3,4	0,1	0,9	0,3	0,2	0,3
7 Yangiyo'l sh.			26,5			0,2	2,1	1,7	6,9	59,5	3,1
<b>tumanlar:</b>											
8 Bekobod			0,1			2,3	0,1	9,0	84,8	3,8	0,0
9 Bo'ka			0,2	0,4		2,6	2,0	9,3	59,1	4,3	22,2
10 Bo'stonliq		55,2	4,3			0,5	0,4	7,1	3,4	28,4	0,6
11 Chinoz	29,8		1,4	0,1		2,6	1,4	13,4	17,0	34,4	
12 Ohangaron			4,7	6,5		1,2	0,0	82,2	0,0	4,1	0,7
13 Oqqo'rg'on			0,3	0,2		2,4	0,5	3,7	81,6	11,3	
14 O'rtachirchiq			12,8			9,0	6,9	9,4	40,2	20,4	1,4
15 Parkent			3,1			1,5	0,4	14,0	13,9	67,2	
16 Pskent						0,1	0,4	5,8	53,6	40,1	
17 Qibray		39,8	3,6			7,9	2,1	7,5	2,3	31,4	5,5
18 Quyichirchiq			0,5			1,9	1,7	21,8	68,6	5,6	
19 Toshkent			12,7			13,1	18,2	1,8	8,9	44,0	1,2
20 Yangiyo'l		2,6	9,9			0,9	26,5	31,0	4,5	24,4	0,1
21 Yuqorichirchiq			12,5			31,9	8,6	26,8	14,3	6,0	
22 Zangiota			13,3			59,2	3,0	2,9	3,6	17,7	0,3
<b>Jami</b>	<b>2,9</b>	<b>9,9</b>	<b>9,3</b>	<b>20,4</b>	<b>18,7</b>	<b>11,7</b>	<b>2,0</b>	<b>8,2</b>	<b>6,1</b>	<b>9,9</b>	<b>1,0</b>


Jadval Toshkent viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Jadval ma'lumotlaridan ko'rish mumkinki, Toshkent viloyati yirik sanoat markazlari o'zining sanoat tarmoqlar tarkibi bo'yicha ham katta farqlanishlarga ega (jadval). Masalan, Angren shahri jami sanoat mahsulotining 21,4 % yoqilg'i, elektrenergiya 46,4 %, rangli metallargiyaning xissasi esa 8,6 % teng bo'lgan. Bekobodda 88,3 % qora metallurgiyaga, 9,0 % qurilish sanoatiga to'g'ri keladi [3]. Shuningdek, Chirchiq shahri sanoatida kimyo, neftkimyo va gaz-kimyo mahsulotlari 36,5 %, mashinasozlik, ta'mirlash va metalni qayta ishlashga esa 31,0 % mos kelgan. Ohangaron sharida qora metallargiya, qurilish mahsulotlari ishlab chiqarish ustunlik qiladi. Bu ikkita sanoat tarmog'i jami sanoat mahsulotining 87,2 % yetkazib bergan. Olmaliq shahri sanoati rangli metallurgiyaga ixtisoslashuvi bilan ajralib turadi. Shahar sanoatida mazkur tarmoq ulushi 80,4 foizga teng.

Bugungi kunda viloyatda 9264 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1282 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 13,8 %) Zangiota tumaniga, 886 tasi (9,3 %) Qibray tumaniga, 793 tasi (8,6 %) Toshkent tumaniga, 482 tasi (5,2 %) Chirchiq shahriga, 459 tasi (5,0 %) Angren shahriga to'g'ri kelmoqda [3].

2-rasm

Toshkent viloyatida yangi tashkil qilingan sanoat korxonalari  
(2022 yil 1 yanvar holatiga)



Manba: Toshkent viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari ([www.toshstat.uz](http://www.toshstat.uz)).

2021- yilda viloyatda 1558 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo'lib, shulardan 131 tasi Qibray tumanida, 159 tasi (10,2 %) Zangiota tumanida, 131 tasi (8,4%) Toshkent tumanida, 86 tasi (5,5 %) Yangiyo'l tumanida, 86 tasi (5,5 %) Yuqori Chirchiq tumanida tashkil etilgan (2-rasm).



Mintaqada sanoatning kelajakda rivojlanishi, eng avvalo, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish, tarmoqlar va hududiy tarkibini diversifikatsiyalash, mavjud mineral xom ashyo va mehnat resurslaridan samarali foydalanish hamda ekologik muammolarni hal etish bilan bog'liq.

### **XULOSA**

Toshkent viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy muammolari, shuningdek, mavjud mineral xom ashyo, agro va mehnat resurslaridan samarali foydalanish, yirik sanoat markazlarida yangi texnologiyalarni joriy qilish, ilmtalab korxonalarini ko'paytirish, modernizatsiya va diversifikatsiya jarayonlarini amalga oshirish, ishlab chiqarishning hududiy tashkil etilishini takomillash-tirish kabi masalalar dolzarb hisoblanadi. Shu bilan birga agrosanoat majmuasini, rekreatsiya va turizmning rivojlanishi, geokologik va nozogeografik vaziyatni yaxshilash, transport va ijtimoiy infratuzilmani takomillashtirish ham katta amaliy ahamiyat kasb etadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Soliev A.S. O'zbekiston geografiyasi (O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi) / Darslik.- T.: Universitet, 2014. – 404 b.
2. [www.stat.uz](http://www.stat.uz).
3. [www.tosh.stat.uz](http://www.tosh.stat.uz).